

**Mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo'llarining  
davlat kadastrini yaratish ishlarini olib borish bo'yicha**

**M/K-2- sonli shartnoma**

Samarqand shahri

“25” noyabr 2022 yil

Samarqand viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi (AYBB) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi boshlig'i N.Sanaqulov, bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi, bir tomondan va Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor R.A.Xatamov, bundan buyon matnda «Bajaruvchi» deb yuritiluvchi, ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

**I. Shartnomaning predmeti, bahosi, to'lov shartlari va bajarish muddatlari**

1.1. Shartnoma “Buyurtmachi”ning texnik topshirig'iga binoan “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga Bulung'ur tumanining mahalliy ahamiyatga molik uzunligi 101 km avtomobil yo'llarini xatlovdan o'tkazish va davlat kadastrini yaratish uchun birlamchi hujjatlar tayyorlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan ishlarning qiymati **246 395 190 (Ikki yuz qirq olti million uch yuz to'qson besh ming bir yuz to'qson)** so'mni, shu jumladan **32 138 503** (O'ttiz ikki million bir yuz o'ttiz sakkiz ming besh yuz uch) so'm QQSni tashkil qiladi.

1.3. Ushbu shartnomaning 1.2-bandi bo'yicha “Bajaruvchi” tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar hajmi o'zgarganda tomonlar kelishuvi asosida qo'shimcha shartnoma rasmiylashtiriladi.

1.4. Shartnomaning 1.3-bandida qayd etilgan asoslar mavjud bo'lganda, “Buyurtmachi” va “Bajaruvchi” o'rtasidagi tuzilgan shartnomaga qo'shimcha kelishuv shartnomasini imzolash orqali rasmiylashtiriladi va shundan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

1.5. “Buyurtmachi” ushbu shartnoma imzolanganidan so'ng, oldindan shartnoma umumiy qiymatining **30** foizini, qolgan qismi esa ishni bajarish dalolatnomasi asosida bajarilgan ishga mutanosib ravishda hujjatlar rasmiylashtirish mobaynida to'lab beradi.

1.6. “Buyurtmachi” tomonidan “Bajaruvchi”ga mazkur shartnomaning 1.5-bandiga ko'ra shartnoma summasining **30%** yani bo'nak puli to'lovi amalga oshirilgandan so'ng, shartnoma yuzasidan loyiha – qidiruv ishlari boshlanadi.

1.7. Ishlarni bajarish uchun qo'yiladigan talablar, ishning nomi va bajarilish muddati (bosqichlari) esa kalendar reja (3-ilovaga muvofiq) bilan belgilanadi hamda mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.8. Mazkur shartnomaning 1.7-bandi va 3-ilovaga muvofiq ishning bajarilish muddati “Bajaruvchi”ga bog'liq bo'lmagan hollar kuzatilganida muddat uzayishi mumkin.

1.9. “Buyurtmachi”ning aybi bilan xizmat ko'rsatish mumkin bo'lmay qolgan taqdirda, shartnoma bahosi butunlay to'lanishi lozim.

**II. Taraflarning huquq va majburiyatlari**

2.1. «Bajaruvchi»ning majburiyatlari:

2.1.1. Buyurtmani O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, kalendar ish rejasida nazarda tutilgan hajmda sifatli qilib bajarish;

2.1.2. Shartnoma talablariga muvofiq tartibda va holatda ishlarni «Buyurtmachi»ga topshirish;



2.1.3. Agarda mazkur shartnomaga muvofiq texnik topshiriq «Buyurtmachi» tomonidan taqdim etilmasa, shartnoma yuzasidan loyiha – qidiruv ishlari natijalari bo'yicha «Bajaruvchi» javobgarlik majburiyatini olmaydi.

2.2. «Buyurtmachi»ning majburiyatlari:

2.2.1. «Bajaruvchi»ga texnik topshiriq berish va u bilan bajariladigan ishlar (bosqichlar) natijalarini kelishish;

2.2.2. Shartnomada belgilangan muddatda va tartibda bajarilgan ishlarni qabul qilib olish hamda uning qiymatini bajaruvchiga o'z vaqtida to'lash.

2.2.3. Buyurtmani amalga oshirish jarayoni bilan tanishib chiqish, yangi olingan ma'lumotlarni «Bajaruvchi»ga o'z vaqtida taqdim qilish;

2.2.4. Buyurtma bo'yicha o'zida mavjud bo'lgan barcha hujjatlarni «Bajaruvchi»ga topshirish;

2.2.5. Shartnoma imzolanganidan keyin 15 kalendar kuni davomida shartnoma summasining 30 % oldindan to'lovini «Bajaruvchi»ning hisobraqamiga pul o'tkazish yo'li bilan o'tkazish;

2.2.6. Buyurtma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar)ni «Bajaruvchi» unga buyurtma bajarilganligi to'g'risida (telefon orqali) xabar bergan kundan boshlab 10 kalendar kun davomida o'zaro dalolatnoma asosida qabul qilib olish;

2.3. «Bajaruvchi»ning huquqlari:

2.3.1. Buyurtmani amalga oshirish uchun buyurtmaga taalluqli bo'lgan barcha zaruriy hujjatlarni «Buyurtmachi»dan talab qilib olish;

2.3.2. Buyurtmani amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ziddiyatlarni (agarda ularni hal qilish «Bajaruvchi»ning vakolatiga kirmasa) «Buyurtmachi» tomonidan hal qilinishini talab qilish;

2.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari:

2.4.1. «Bajaruvchi»dan mazkur shartnomaga asosan beriladigan texnik topshiriqqa muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish.

### III. Ishni topshirish va qabul qilish tartiblari

3.1. Bajarilgan ishlarni qabul qilish texnik topshiriqqa muvofiq amalga oshiriladi.

3.2. Bajarilgan ishlarning bosqichlari, tugatilishi bilan bog'liq holda rasmiylashtiriladigan hujjatlar ro'yxati va topshirish tartiblari texnik topshiriq bilan hamda bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan bosqichlar bo'yicha qabul qilib, so'ng haq to'lanadi.

3.3. «Bajaruvchi» ishni tamomlagandan so'ng «Buyurtmachi»ga bajarilgan ish (bosqich)larni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini texnik topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar majmui bilan birgalikda taqdim qiladi.


3.4. «Buyurtmachi» ushbu dalolatnomani mazkur shartnomaning 3.3.-bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini va ishni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng 10 kun davomida ishni qabul qilish majburiyatini oladi va «Bajaruvchi»ga imzolangan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini yoki ishni qabul qilmaslik sababini asoslovchi yozma izohni yuboradi.

3.5. «Buyurtmachi» ishni qabul qilishini asosli rad etsa, qo'shimcha bajariladigan ishlar va ularning bajarilish muddatlari ko'rsatilib ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.6. Ishni bajarish jarayonida uni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida tomonlar bir-birini 5 (besh) kunlik muddat ichida xabardor qilishga va maqsadga muvofiq ishni davom ettirish to'g'risidagi masalani 15 (o'n besh) kunlik muddat ichida ko'rib chiqishga majburdirlar.

3.7. Bajarilayotgan ish "asosli ravishda to'xtatilgan va uni davom ettirish maqsadga muvofiq emas" - deb, topilgan taqdirda, ishning bajarilgan qismi uchun «Buyurtmachi» tomonidan «Bajaruvchi»ga haq to'lanadi.

3.8. Ushbu shartnoma 2022 yil "25" // dan 2023 yil 31-dekabrgacha haqiqiy hisoblanadi.





#### IV. Taraflarning javobgarligi.

4.1. Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi va amaldagi boshqa qonunlarda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

4.2. «Buyurtmachi» shartnoma bo'yicha to'lovlarni shartnomaning 1.5.-bandida ko'rsatilgan tartibda va muddatda amalga oshirmasa, kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi kechiktirilgan summaning 0,5 foizi miqtorida «Bajaruvchiga» peniya to'laydi. Biroq hisoblangan peniyaning umumiy summasi to'lanishi kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.3 «Bajaruvchi» ishlarni bajarish muddatini shartnomada nazarda tutilgan vaqtdan kechiktirgan taqdirda, kechiktirilgan har bir kun uchun balarilmagan ishlar summasining 0,5 foizi miqdorda «Buyurtmachi»ga peniya to'laydi. Biroq hisoblangan peniyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar summasining 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.4. «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomaning 1.5.-bandidagi avans to'lovi kechikib o'tkazilganda, ishni tamomlash muddati shunga mutanosib uzaytiriladi.

4.5. Bajarilgan ishda asosli kamchiliklar aniqlangan taqdirda «Bajaruvchi» kamchiliklarni o'z hisobidan taraflar tomonidan kelishilgan muddatda bartaraf etishga majbur.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha kelib chiqqan barcha nizolar o'zaro kelishuv yo'li bilan, uning imkoni bo'lmaganda iqtisodiy ishlar bo'yicha Samarqand shahar sudi tomonidan hal qilinadi.

#### V. Qo'shimcha shartlar

5.1. «Bajaruvchi» bajariladigan ishlarning qiymati oshishi mumkinligi to'g'risida «Buyurtmachi»ni o'z vaqtida (yozma) xabardor qilishga va «Buyurtmachi»ning yozma roziligini olmagunga qadar ishni to'xtatib turishga haqlidir. Agar «Buyurtmachi» «Bajaruvchi» taqdim etgan narxda ishni davom ettirishni "maqsadga muvofiq emas" – deb topsa, u holda «Bajaruvchi»ning ko'rgan zararlarini to'laydi.

5.2. Shartnoma shartlariga taraflarning roziligi bilan kelishuv bitimi orqali qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

5.3. «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi tarafni jalb qilishi mumkin.


5.4. Ushbu shartnomaning 1-2- ilovalari shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

#### VI. Fors – major holatlari

6.1. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yengib bo'lmas kuch oqibatida (Fors–major holatlari), shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda hodisalar natijasida (tabiiy ofatlar, Prezident farmoni, Hukumat qarorlari va hokozalar) vujudga kelgan bo'lsa, tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlari qisman yoki to'liq bajarilmagani uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Bundan yuzaga kelgan moliyaviy qarzdorlik masalalari belgilangan tartibda hal etiladi.

#### VII. Taraflarning yuridik manzili va to'lov rekvizitlari.

**Bajaruvchi:** Samarqand hududlararo bo'linmasi  
**Manzili:** 140108, Samarqand shahri R. Uzoqova ko'chasi, 12 uy  
**Hisob raqami:** 20210000700470243001, «Asaka» bank Samarqand viloyati filiali  
MFO 00264, STIR 201786543, IFUT 71120 Tel.:66-237-15-13





**Buyurtmachi:** Samarqand viloyati avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi

**Manzili:** Samarqand shahri A.Nabiyeva ko'chasi, 3 uy

**Hisob raqami:** 23402000300100001010, «Markaziy bank» XKKM Toshkent shahar boshqarmasi  
MFO 00014, STIR 201122919, Tel.:66-234-26-08,234-26-59

Mazkur shartnomaga: ishni bajarish kalendar rejasi, bajariladigan ishlar hisob smetalari, bayonnoma va buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan ish hajmi ro'yxati ilova qilinadi.

**BAJARUVCHI**

**BUYURTMACHI**

**R.A.Xatamov**

**N.Sanaqulov**

M.O'

M.O'





**Samarqand viloyati Bulung'ur tumani AYXB Boshqarmasining balansidagi umumfoydalanuv avtomobil yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish ishlariga**  
SMETA

MAXTEM - 920 000 so'm

T/r	Ishlar bosqichlari	Yer tuzish ishlari bo'yicha "Namunaviy vaqt normalari to'plami" ning bet va jadvallari	Bajaruvchi mutaxassisni lavozimi	Bajaruvchilar soni	Ishlarni bajarish bilan qatnashish hissasi	O'lchov birligi	Miqdori (natural ko'rinishdagi hajmi)	Koeffitsientlar				Odam-oy qiymati	Obyektning qiymati
								ko'laruvchi miqdori	pasaytiruvchi miqdori	nomi	miqdori		
Yerdan foydalanuvchilar soni - 28 ta													
Jummiy yer maydoni - 3 400,0 ga.													
Tumanlar													
1 ta													
1	Tayyorgarlik ishlari	9.3-jadval	Muhandis	1	100%	tuman	1	12,915	0,612	10 776 824	10 776 824	6 595 416	
2	Yerdan foydalanuvchilar yer maydonlarini yo'qlamadan o'tkazish	10.11-jad. 1 satr	Yetakchi muhandis 2-toifali muhandis	1	20% 80%	Yerdan foydalanuvchilar soni	28	0,48*21,1 10,128	13,44	2 513 399 9 337 527	11 850 926	159 276 445	
3	Kameral ishlari	10.12 - jad.	2-toifali muhandis	1	100%	10 kv. Dm	6,00	2,87	0,816	11 671 909	11 671 909	9 524 278	
4	Deshifrovka ishlari 1:10 000 masshtab	9.1-jadv. (II-kat)	Muhandis	1	100%	kv.km	340,00	0,089	0,814			8 772 335	
5	1:10 000 mashabdadagi elektron xaritalarni yangilash	9.6- jadval V	2-toifali muhandis	1	100%	1 kv. Dm	34,00	1,340	2,159	11 671 909	11 671 909	25 199 652	
6	Hisobot tayyorlash	10.13 - jad.	Yetakchi muhandis	1	100%	tuman	1	8,200	0,389	12 566 994	12 566 994	4 888 561	
Ishning jami qiymati													
QQS 15%													
Jami QQS bilan													
214 256 687													
32 138 503													
246 395 190													

Ikki yuz qirq olti million uch yuz to'qson besh ming bir yuz to'qson so'm.

Buyurtmachi:

Samarqand hududlararo bo'linmasi  
direktori  
Xatamov R.A.



Toshtemirov A.S.

RMB boshlig'i

Kelishilgan shartnomaviy narxlar to'g'risidagi

**BAYONNOMA**

“ 25 ” noyabr 2022-yil

Bizlar, quyidagi imzo qiluvchilar Samarqand viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi (AYBB) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi boshlig'i N.Sanaqulov, bundan buyon matnda «Buyurtmachi» deb yuritiluvchi, bir tomondan va Respublika aerogeodeziya markazi Samarqand hududlararo bo'linmasi nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor R.A.Xatamov bundan buyon matnda «Bajaruvchi» deb yuritiluvchi, ikkinch tomonidan 2022-yil “ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_dagi M/K-2-sonli shartnomaning kelishilgan narxi qiymati 246 395 190 (Ikki yuz qirq olti million uch yuz to'qson besh ming bir yuz to'qson) so'mni, shu jumladan 32 138 503 (O'ttiz ikki million bir yuz o'ttiz sakkiz ming besh yuz uch) so'm QQSni tashkil qilishini haqiqattan tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnoma «Bajaruvchi» va «Buyurtmachi» tomonidan “hisob-kitob qilish uchun asos” – deb hisoblanadi.

**BAJARUVCHI**

R.A.Xatamov

M.O'.



**BUYURTMACHI**

N.Sanaqulov

M.O'.





### Ishlarni bajarish kalendar rejasi

t/r	Ishlarning (bosqichlarning) nomi	Ishlarning bajarish muddatlari		Ishlarning (bosqichlarning) narxi, so'm		
		boshlanishi	yakunlanishi	Jami	shu jumladan joriy yilda yoki choraklarda	shu jumladan 2022 yilda
1	"Samarqand viloyati Bulung'ur tumani mahalliy ahamiyatga molik umumiy uzunligi 101,0 km avtomobil yo'llarning chegara zonasini yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish"	2022 yil	2022 yil	246 395 190	246 395 190	246 395 190

246 395 190 (Ikki yuz qirq olti million uch yuz to'qson besh ming bir yuz to'qson) so'm. Shu jumladan 32 138 503 so'm QQS bilan.



**BUYURTMACH I**

N.Sanaqulov













№	Корхона номи	I-чорақ				II-чорақ				III-чорақ				IV-чорақ			
		Янв	Февраль	Март	Жуни	Апрель	Май	Июнь	Жули	Июль	Август	Сентябрь	Октябрь	Ноябрь	Декабрь		
16	Ботшомол ИМФУК	7045160	000	3 108 490,130	850 517,0	310 721,0	269 898,0	269 898,0	831 474,0	277 158,0	277 158,0	277 158,0	277 158,0	595 025,149	277 158,0	174 452,149	143 415,0
	Халқаро аҳолигадиги йўллар	7045161	118	2 454 855,130	689 738,0	216 305,0	216 305,0	216 305,0	670 695,000	223 565,0	223 565,0	223 565,0	223 565,0	423 727,149	223 565,0	110 081,149	90 081,0
	Шу жумладан 2021 йилнинг кредитлар қарзи	7045161	118	40 822,981	40 823,0	40 823,0	40 823,0	40 823,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0	0	0
	Ишонч бонуслари аҳолигадиги йўллар	7045161	118	1 410 465,000	391 866,0	130 622,0	130 622,0	130 622,0	391 866,0	130 622,0	130 622,0	130 622,0	130 622,0	224 867,0	130 622,0	52 122,0	52 123,0
	Давлат аҳолигадиги йўллар	7045162	118	653 635,000	160 779,0	53 593,0	53 593,0	53 593,0	160 779,0	53 593,0	53 593,0	53 593,0	53 593,0	171 298,0	53 593,0	64 371,0	53 334,0
	Курсияли бонуслар	7045161	118	3 571 220,000	991 220,0	471 220,0	471 220,0	471 220,0	780 000,0	260 000,0	260 000,0	260 000,0	260 000,0	1 020 000,0	260 000,0	458 745,0	301 255,0
	Халқаро аҳолигадиги йўллар	7045161	118	3 571 220,000	991 220,0	471 220,0	471 220,0	471 220,0	780 000,0	260 000,0	260 000,0	260 000,0	260 000,0	1 020 000,0	260 000,0	458 745,0	301 255,0
	Шу жумладан 2021 йилнинг кредитлар қарзи	7045161	118	211 219,844	211 219,844	211 219,844	211 219,844	211 219,844	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
	Савдо бонуслари	7045161	118	4 641 600,0	0	0	0	0	2 590 000,0	1 026 000,0	400 000,0	400 000,0	400 000,0	2 051 600,0	51 600,0	2 000 000,0	0
	Халқаро аҳолигадиги йўллар	7045161	118	136 000,0	0	0	0	0	136 000,0	10 000,0	0	0	0	0	0	0	0
	Паспортлар	7045161	118	90 000,0	0	0	0	0	90 000,0	0	0	0	0	0	0	0	0
	Қаётар харожадлари	7045161	118	46 000,0	0	0	0	0	46 000,0	10 000,0	0	0	0	0	0	0	0
	Давлат аҳолигадиги йўллар	7045162	118	2 954 000,0	0	0	0	0	1 454 000,0	654 000,0	400 000,0	400 000,0	400 000,0	1 500 000,0	0	1 500 000,0	0
	Шу жумладан:	7045162	118	2 954 000,0	0	0	0	0	1 454 000,0	654 000,0	400 000,0	400 000,0	400 000,0	1 500 000,0	0	1 500 000,0	0
	Қаётар харожадлари	7045163	118	1 551 600,0	0	0	0	0	1 000 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	551 600,0	51 600,0	500 000,0	0
	Маҳаллий аҳолигадиги йўллар	7045163	118	51 600,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	51 600,0	51 600,0	500 000,0	0
	Шу жумладан:	7045163	118	51 600,0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	51 600,0	51 600,0	500 000,0	0
	Қаётар харожадлари	7045163	118	1 500 000,0	0	0	0	0	1 000 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	500 000,0	0
	Х а л м а с и с (сакли таъмирлан бўйича):			50 629 680,260	11 193 825,211	3 987 961,211	3 602 932,000	3 602 932,000	13 382 500,000	4 761 500,000	3 997 500,000	3 997 500,000	3 997 500,000	15 260 855,1	3 649 100,000	7 552 591,149	4 059 164,000
	Бонуслар аҳолигадиги йўллар			16 758 035,000	4 115 292,000	1 371 764,000	1 371 764,000	1 371 764,000	4 115 292,000	1 371 764,000	1 371 764,000	1 371 764,000	1 371 764,000	4 412 159,0	1 371 764,000	1 613 863,000	1 426 532,000
	Халқаро аҳолигадиги йўллар			13 198 742,130	3 312 963,981	1 272 349,981	1 020 307,000	1 020 307,000	3 196 921,000	1 030 307,000	1 020 307,000	1 020 307,000	1 020 307,000	3 627 936,1	1 020 307,000	1 545 502,149	1 062 127,000
	Шу жумладан 2021 йилнинг кредитлар қарзи			252 042,825	252 042,825	252 042,825	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	Бонуслар аҳолигадиги йўллар			2 977 930,000	783 732,000	261 244,000	261 244,000	261 244,000	783 732,000	261 244,000	261 244,000	261 244,000	261 244,000	626 734,0	261 244,000	182 744,000	182 746,000
	Давлат аҳолигадиги йўллар			25 622 568,230	5 426 637,230	1 846 497,230	1 790 070,000	1 790 070,000	6 807 914,000	2 438 638,000	2 184 638,000	1 784 638,000	1 784 638,000	8 034 103,0	1 784 638,000	4 226 046,000	2 023 419,000
	Шу жумладан 2021 йилнинг кредитлар қарзи			56 696,000	56 696,000	56 696,000	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
	Бонуслар аҳолигадиги йўллар			13 780 105,000	3 331 560,000	1 110 520,000	1 110 520,000	1 110 520,000	3 331 560,000	1 110 520,000	1 110 520,000	1 110 520,000	1 110 520,000	3 785 425,0	1 110 520,000	1 431 119,000	1 243 786,000
	Маҳаллий аҳолигадиги йўллар			11 808 370,000	2 454 224,000	869 114,000	792 555,000	792 555,000	3 377 665,000	1 292 555,000	792 555,000	792 555,000	792 555,000	3 598 816,0	844 155,000	1 781 043,000	973 618,000
	Шу жумладан 2021 йилнинг кредитлар қарзи			76 559,000	76 559,000	76 559,000	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0

Автомобиль йўлларидан фойдаланиш ва техник ҳолатини таъминlash бўлими

И.Хожиев  
2022 йил



2022 йил